

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15259173>

XIX ASR 2-YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENTNING SHAHAR BOSHQARUVI VA IJTIMOIIY TUZILISHI

Mahammadxo‘jayev Dostonbek G‘aybullo o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
tarix kafedrası 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining “yangi” qismi qurilishi va boshqaruvi, Harbiy-xalq boshqarmasi faoliyati, shahar budjeti va 1877-yilda Duma tashkil etilishi yoritilgan. Mustamlaka boshqaruvi va mahalliy aholining chetda qolishi masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Toshkent, shahar boshqaruvi, Harbiy-xalq boshqarmasi, Duma, XIX asr, mustamlaka siyosati.

Аннотация: В статье анализируется развитие новой части Ташкента во второй половине XIX века, деятельность военно-народной администрации, городской бюджет и создание Думы в 1877 году. Рассматривается влияние колониальной политики и исключение местного населения из управления.

Ключевые слова: Ташкент, городское управление, военно-народная администрация, Дума, XIX век, колониальная политика.

Abstract: This article explores the evolution of Tashkent’s newly developed area during the late 1800s, with particular attention to the role of the military-civil administration, municipal finances, and the formation of the City Duma in 1877. It sheds light on the colonial governance structure and the marginalization of the indigenous population.

Keywords: Tashkent, urban governance, military-civil administration, City Duma, late 19th century, colonial rule.

XIX asrning 2-yarmi Toshkent shahrining «yangi qismining qurilishi va rivojlanishi shahar ma'muriyati faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. 1866-yilda tashkil etilgan Shahar qo'mitasi asosan uy qurish uchun yer ajratish va pul undirish bilan shug'ullanardi. Shahar obodonchiligi uchun sug'orishning ahamiyati kattaligini hisobga olib, Toshkentning "yangi" qismida ariqlarni va suvni to'g'ri taqsimlashni boshqarib boruvchi ariq qo'mitasi tuzilgan edi. Ushbu ikki qo'mita bir-biriga bo'ysunmagan holda faoliyat ko'rsatgan. Ularda hech qanaqangi qoida va yo'riqnoma bo'lmay, bu shahar xo'jaligini boshqarishni qiyinlashtirgan. 1867-yili Turkiston general-gubernatorligi e'lon qilingach uning birinchi gubernatori qilib K.P.Kaufman tayinlandi. General gubernatorning vakolati cheksiz bo'lib, u agarda mahalliy boshqarma va uning urf-odatlarida davlat manfaatiga qarshi biror zararli holat ma'lum bo'lsa, ularni bekor qilish huquqiga ega edi¹. Butun Turkiston o'lkagi hududidagi harbiy va fuqaro hokimiyat general gubernator hamda viloyatlarning harbiy gubernatorlari qo'lida edi. Rus hukumati o'lkada joriy etmoqchi bulgan boshqarma aparati mahalliy aholining har qanday ozodlik uchun ko'targan harakatlarini bostirishi va mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash uchun xizmat qilishi darkor edi. Dastlab 1867-yil Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari kirgan. Keyinchalik mintaqada Rossiya hukmronligining kengayishi bilan general-gubernatorlikka: Sirdaryo, Farg'ona, Yettisuv, Samarqand va Kaspiyorti viloyatlari kirdi. Bir vaqtning o'zida Turkiston general-gubernatorligi ixtiyorida bo'lgan Buxoro amirligi va Xiva xonligi ustidan ham rus hukumati protektorati o'rnatildi. 1868-yil 27-fevralda Sirdaryo, Semipalatinsk viloyatlari va Toshkentning "yangi" qismida boshqaruv to'grisidagi 1867-yil loyihasiga binoan harbiy-xalq boshqarmasi tuzildi². Statistika maslahatchi Rossitskiy boshqarmaning birinchi boshlig'i etib saylandi. Shaharning "yangi" va "eski" qismlaridagi ijtimoiy-siyosiy va

¹ Озодаев Ф. Ташкент тарихидан очерклар. Т. : 1960. 106-бет. К.П.Кауфман. Проект всеподданнейш его отчета генерал-адъютанта К.П.фон-Кауфмана 1-го по гражданству управлению и устройству в областях Туркестанского генерал - губернаторства. Спб. 1885. 43-бет.

² Бродский М.И. К 35-летию городского общественного управления. Т. 1912. 2-бет. Туркестанский сборник, 548 ж.

xo‘jalik bopsharuvi bir-biridan alohida-alohida olib borilgan, holbuki bu har ikkala qism ham Toshkent shahri boshlig‘iga bo‘ysunar edi. Toshkentning “yangi” qismida quyidagi ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutildi:

1. Reja tuzish, uy qurishga yer ajratish, ko‘cha va maydonlar barpo etish.
2. Soliqlar, turli tushumlarni tartibga keltirish va undirish, shuningdek, Shahar daromad va harajatlar sxemasini tuzish.
3. Shahar irrigatsiya tizimi va obodonchiligini boshqarish. Harbiy-xalq boshqarmasining barcha qarorlari general-gubernator tomonidan tasdiqlangach, viloyat idorasi, Shahar boshlig‘i va hokimi orqali hayotga tatbiq etilgan¹.

Shuni ta’kidlash kerakki, mazkur boshqaruv Toshkent Shahar boshqaruvi to‘g‘risidagi loyihani uzil-kesil ishlab chiqilgunga qadar ta’sis etilgan edi. Boshqaruv a’zolari 3 yilga saylanar edi². Harbiy xalq boshqarmasi uchun ko‘p moddiy mablag‘ talab etilmasdi. Chunki quyi ma’muriyat aholi hisobiga yashardi. Ularni hamda boshqaruv raisi lavozimini harbiy gubernator tasdiqlar edi. Boshqaruv a’zolari xazinaga kelib tushadigan har yilgi tushumlarning 5 yo 10% miqdorida maosh olar edilar. Oqsoqollarning barchasi xalq hisobiga yashagan. Bu esa o‘z navbatida talon-tarojlikka keng yo‘l ochib bergan. 1870-yildan boshlab shaharning «yangi» qismda ijtimoiy xo‘jalik boshqarmasiga asos solinib, uning tarkibi Harbiy-xalq boshqarmasidan besh amaldor hamda «yangi» qismdan to‘rt uy sohibidan iborat bo‘lib, Harbiy gubernator tomonidan tayinlangan. Eski shahar ijtimoiy-xo‘jalik boshqarmasida 20 kishi faoliyat yuritgam. Lekin bu boshqarmalar mustaqil ravishda hech qanday tadbirlarni o‘tkaza olmas edi. Buning uchun albatta, Shahar boshlig‘i yoki yuqori ma’muriyatdan ruxsat olishlari shart edi. Boshqarmalarning asosiy vazifalari davlat soliqlarini to‘plash, zemstvoning ijtimoiy yig‘imlarni taqsimlash va boshqalardan iborat edi. Shahar boshlig‘i boshqarma raisi vazifasini ham bajargan. Shahar xo‘jaligi haqidagi masalalar va harajatlar shaharning ikkala qismi uchun ham bir xilda hal etilib, hatto mablag‘lar ham teng ikkiga bo‘lingan edi. shaharning “eski”

¹ УзР МДА 17-Ф. 1-руй. 18115-иш. 19-20-бетлар.

² Россия Давлат Марказий тарих архиви. 1396-Ф. 1-руй. 41-иш . 32-бет.

qismi boshqarmasi a'zolari xo'jalik ishlarini olib boruvchi yangi tartib va qonunlar bilan mutlaqo tanish bo'lmaganlar, rus tilini ham bilmaganlar. Yangi shahar xo'jalik boshqarmasi a'zolari ruslardan iborat bo'lib, ular ham mahalliy tartiblar va aholining urf-odatlaridan umuman bexabar bo'lganlar. Aholi manfaatlarini hisobga olmay, bunday suniy ajratish shahar xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Xatto rus amaldorlarining o'zi ham mazkur boshqaruv shahar xo'jaligi masalalarida mutlaqo yaroqsiz ekanligini va u yerdagi «amaldorlarning xizmat majburiyatlari boshqaruv manfaatlariga mutlaqo zid ekanini ta'kidlaganlar. Shahar budjeti ancha g'arib bo'lishiga qaramay uning qurilishi va obodonchiligi bo'yicha ma'lum ishlar qilingan. 1870-yilda shahar daromadi 10 ming rubl, 1871-yilda 17,5 ming rubl, 1872-yilda 17 ming rubl, 1873-yilda 21820 rubl, 1871-yilda 23917 rubl, 1875-yilda 30287 rubl, 1876-yilda 27766 rublni tashkil etgan. Budjetning 82% i moliya va shahar jamoatchilik boshqaruvi, tibbiy, sanitar xizmati va sud organlari, irrigatsiyaning shaxsiy tarkibini ta'minlashga va boshqalarga, mablag'ning 18 foizigina shahar obodonchiligiga sarflanardi¹. Bu ahvolda jamoatchilik boshqaruvi o'z vazifasini qay darajada bajargani o'z-o'zidan ayon. Aholi o'sishi va shahar hududi kengayishi munosabati bilan 1870-yil 16-iyundagi Umumrossiya Shahar nizomiga ko'ra Dumani tashkil etish zaruriyati yuzaga keldi. Birinchi marta bu masala 1872-yilda ko'tarib chiqildi, biroq bu masalani 1877-yildagina hal etishga muvaffaq bo'lindi. Shu yili Sirdaryo harbiy gubernatori boshchiligida maxsus hay'at tuzilib, unga Toshkent shahrining “eski” va “yangi” qismlari uchun yagona boshqaruvni tashkil etish bo'yicha loyiha tayorlash topshirilgandi. Hay'at saylovchilar ro'yxatini tuzish, Shahar jamoatchilik boshqaruviga saylov o'tkazish bo'yicha ish olib bordi. Saylovda 25 yoshga to'lgan, shaharda ko'chmas mulki bo'lgan rus fuqarosi, savdo va kosibchilik guvohnomalari bo'yicha shahar solig'ini to'laydigan, qarzlarini bo'lmagan va sudlanmagan shaxslar ishtirok etishi mumkin edi². Dumada ovoz beruvchilar soni 72 kishidan oshmasligi kerak edi. Shulardan Toshkentni xristian bo'lmagan, faqat mahalliy aholining uchdan

¹ УзР МДА. 2231-Ф 1-руй. 165-иш. 32-бет.

² Озодаев А. кыр. асар 107-бет.

bir qismidan ortiq bo'lmagan tub aholi vakillaridan a'zolar, qolgan ikkidan uch qismi shaharning "yangi" qismidagi aholi vakillaridan tashkil topishi shart edi. Saylovlarda asosan savdogarlar, yirik sanoat korxonalari va uy egalari ishtirok etgan. Yangi tashkil etilgan Duma birinchidan, shaharni mustamlakachilar qo'lida saqlab turishni, ikkinchidan, Dumaga saylangan tub aholi vakillarini hokimiyat tayanchiga aylantirishni maqsad qilib qo'ygandi. Shahar boshlig'i general gubernator tomonidan tayinlangan. Shu tariqa chor hukumati mahalliy aholi mehnati evaziga kun ko'ruvchi quyi ma'muriyat barpo qildi. Dumaga saylov 4 yilda 1 marta bo'lib o'tgan¹. Shahar saylovlarida "eski" Shahardagi ko'chmas mulkka ega bo'lgan masjidlar, madrasalar va boshqa muassasalar ham o'z vakillari orqali ovoz berish huquqiga ega edilar.

1870-yildagi shahar nizomini tatbiq etilishi birmuncha mahalliy xususiyatlarga ega ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, shahar jamoatchiligi boshqaruvi funksiyasiga shaharni uzluksiz suv bilan ta'minlash maqsadida irrigatsiya inshootlarini qurish va saqlash ham kiritilga edi. 1877-yil 9-avgustda general-gubernator polkovnik Y.T. Pukalovni shahar hokimi etib tayinladi. Shundan bir hafta o'tib Toshkent Shahar Dumasiga a'zolari saylash boshlandi. O'sha yilning 40-avgustida Toshkent Shahar Dumasining ochilishi bo'lib o'tdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining "yangi" qismini qurish va boshqarish Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan harbiy-ma'muriy tizim asosida amalga oshirilgan bo'lib, bu jarayon shahar infratuzilmasining shakllanishi va rivojida muhim bosqich bo'ldi. 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibidagi boshqaruv organlari, jumladan Harbiy-xalq boshqarmasi va keyinchalik shakllangan Duma, shaharni rus mustamlakachilik siyosati asosida boshqarishga yo'naltirildi. Boshqaruvda mahalliy aholi vakillarining cheklangan ishtiroki, "eski" va "yangi" shahar qismlari o'rtasidagi boshqaruv tafovutlari, til va madaniyatdagi farqlar, shuningdek, shahar moliyasining zaifligi jiddiy muammolarga sabab bo'ldi. Shahar budjeti cheklangan bo'lishiga qaramay, obodonchilik, sug'orish tizimlari va uy-joy qurilishi bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Ammo, boshqaruvning markazlashtirilgan va mustamlakachilik yo'nalishida tashkil etilgani, mahalliy aholi ehtiyojlarining e'tibordan chetda qolishiga olib keldi. Shu sababli, ushbu davrdagi boshqaruv tizimi Toshkentda zamonaviy shahar boshqaruvi asoslarini yarata olmagan, aksincha, siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirgan.

¹ УзР МДА 2231-Ф. 1-руй. 65-иш. 10-бет.